**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXIMOV KAMOLADDIN O‘RINBAYEVICH

METRIK GRAFLARDA BERILGAN KASR HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN POTENSIALLAR USULI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

**fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

UDK: 517.953

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

RAXIMOV KAMOLADDIN O‘RINBAYEVICH

METRIK GRAFLARDA BERILGAN KASR HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN POTENSIALLAR USULI

01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.3.PhD/FM747 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘iga http://www.ziyonet.uz/ joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sobirov Zarifboy Axmedovich** fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Durdiev Durdimurod Qalandarovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Karimov Erkinjon To‘lqinovich fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “ 14 ” mart soat 17:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (157-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “ 28 ” fevral kuni tarqatildi.
(2023 yil “ 28 ” fevraldagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V. I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti

O‘. A. Roziqov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

J. K. Adashev
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A. A. Azamov
ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ma'lumki, fizika, mexanika, kimyo, biofizika, biotexnologiya va ishlab chiqarishdagi ko'plab ilmiy tadqiqotlar xususiy hosilali differensial tenglamalar nazariyasi masalalariga keltiriladi. Shu jumladan, ko'plab tarmoqlangan sistemalardagi jarayonlar graflarda ushbu tenglamalarni o'rganishni taqozo etadi. Masalan, tarmoqlangan sohalardagi jarayonlarni modellashtirishda metrik graflarda berilgan xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar qo'llaniladi. Bunda grafning tarmoqlanish nuqtasida oqimning lokal saqlanishi umumiy sharti, ya'ni Kirxgoff sharti qo'llanilib, u eng sodda holatda graf uchida yechimning uzluksizligini va yechim bir tomonlama hosilalarining yig'indisi nolga tengligini ifodalaydi.

Asab tizimlarida impulsning tarqalish jarayonlarini modellashtirishda esa, metrik graflarda berilgan diffuziya tenglamasi uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalar ishlatiladi. Ba'zan Eyri tenglamasi deb ataluvchi chiziqlashtirilgan Korteveg-de Friz tenglamasi chiziqli, yo'nalmagan, oz tebranuvchi uzun to'lqinlar, masalan kichik havzadagi suvlardagi to'lqinlarni asimptotik tasvirlash uchun qo'llaniladi. Shuningdek, tibbiyot sohasida jarayonlarni matematik modellashtirishda graflarda berilgan differensial tenglamalar keng qo'llaniladi. Xususan, genlarda RNK bilan bog'liq jarayonlarni modellashtirishda differensial tenglamalar zinapoyasimon graflarda qaraladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda fundamental fanlarning, shu jumladan matematik fizika tenglamalari fanining zamonaviy usullarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga metrik graflarda berilgan noklassik tenglamalar uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarni o'rganishga qaratilgan e'tiborni ham qo'shish mumkin. Metrik graflarda berilgan noklassik Eyri va subdiffuziya tenglamalarini kvant fizikasi jarayonlariga qo'llab, e'tiborga molik natijalar olingan. «Differensial tenglamalar va matematik fizika»[1] fanining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalar va faoliyat yo'nalishlari etib belgilandi. Shu bois, metrik graflarda berilgan tenglamalar uchun boshlang'ich-chegaraviy masalalarni yechish fanning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-sonli Qarori va 2020 yil 7 maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 292-son qarori.

vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘tgan asrning 80-yillarida rus olimi Merkov tomonidan graflarda berilgan issiqlik tarqalish tenglamasini o‘rganish boshlangan. Chex olimlari P.Eksner va P.Seba graflarda berilgan klassik tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni o‘rganishgan. Eyri tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni o‘rganishga qiziqish o‘tgan asrning o‘rtalaridayoq mavjud bo‘lgan. Joriy asr boshlarida italyan matematik ayoli B. Pelloni tomonidan uchinchi darajali tenglamalar uchun chegaraviy masalalar o‘rganilgan. 2010-yillarda metrik graflarda berilgan Eyri tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar va Koshi masalasiga bag‘ishlangan bir qator ishlar nashr etilgan. So‘nggi yillarda ko‘plab ilg‘or olimlar kasr hosilali differensial tenglamalar ustida ish olib bormoqdalar. Jumladan, vatandoshlarimiz Sh. Alimov, R. Ashurov, E. Karimov, O. Abdullaev va boshqalar ham. XXI asr boshlarida kasr hosilaning qo‘llanilishi haqida bir qator ishlar nashr qilingan. Jumladan, rus matematigi A. Aliev tomonidan kasr tartibli hosilali tenglamalar uchun masalalarni o‘rganishga katta turtki beradigan darajadagi juda muhim tengsizliklar olingan, A.V. Psxu tomonidan vaqt kasr tartibli hosilali Eyri tenglamasi uchun Koshi masalasining fundamental yechimi qurilgan.

Ma’lumki, diffuziya tenglamasi fizika, biologiya, mexanika, kimyo kabi fanning bir nechta sohalarida keng qo‘llaniladi. Xususan, Bartolomey Dibiyes va Yeva Gudovska-Novak 2009 yilda anomal diffuziya tenglamasi uchun modelni o‘rganishgan. Sal keyinroq Lenglends va Genri biologik organizmalar ko‘chishining kimyoviy yo‘nalishlarini modellashtirish uchun subdiffuziya tenglamasining mezoskopik va makroskopik modelini kiritishgan. A.V.Psxu va S.Rexviashvili birgalikda chop etgan maqolasida vaqt bo‘yicha kasr hosilali diffuzion-to‘lqin tenglamasi uchun boshlang‘ich shartsiz asimptotik masalani tadqiq qilishgan. So‘nggi yillarda rus olimlari D.Gerasimov, I.Popov, I.Blinovalar esa Maksvell nanosuyuqligi uchun magnitogidrodinamik aralash masalaning yechimini topishgan. S.A. Chivilxin va V.V. Gusarov nanosuyuqliklar dinamikasini tasvirlash uchun kasr hosilali modellardan foydalanishgan. Xususan, vaqt bo‘yicha kasr hosilaning tartibi oshishi bilan issiqlik sig‘imining o‘zgarish tezligi oshishi aniqlangan. Grin funksiyasi metodi chegaraviy masalalarni yechish uchun muhim usullardan biri hisoblanadi. A.V.Psxu 2005 yil nashr etilgan monografiyasida Grin funksiyasi metodini kasr hosilali tenglamalar uchun qo‘llagan. D.Mexdi va D.Muhammad Grin funksiyasi metodi orqali turli sohalarda berilgan statsionar va nostatsionar differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalaning sonli yechimini topishgan.

Metrik graflarda berilgan kasr hosilali differensial tenglamalar oqim bilan bog‘liq ko‘plab tarmoqlangan sistemalarni, shu jumladan tarmoqlangan nanotruba orqali oqimni ifodalovchi aniq model sifatida xizmat qiladi. Shu boisdan, so‘nggi yillarda bu borada ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, grafda berilgan Shryodinger tenglamasi ham keng tadqiq qilingan. D.S. Nikiforov va I.V.Blinovaning 2019 yilda chop etilgan maqolasida o‘zgaruvchan qirrali grafda berilgan Shryodinger operatori o‘rganilgan. Shuningdek, G.Xudoyberganov, Z.Sobirov va M.Eshimbetovlar metrik grafda berilgan Shryodinger tenglamasi uchun unifitsirlangan Fokas almashtirishi usulini qo‘llashgan. I.Lobanov va D.Nikiforov 2020 yilda Kazimir dinamik effektini tasvirlash uchun vaqtga bog‘liq bo‘lgan geometrik graf modelini taklif qilishdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston Milliy universitetining №14-022 RG/MATHS/AS_G; UNESCO FR:324028610 raqamli “Mezoskopik fizikada yuzaga keluvchi metrik graflarda nochiziqli evolyusion va transport tenglamalari” nomli ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi metrik graflarda berilgan kasr tartibli hosilali tenglamalar, xususan, Eyri va subdiffuziya tenglamalari uchun masalalarni qo‘yish va bu masalalarning yechimini qurishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

yarim cheksiz qirralarga ega ochiq yulduzsimon metrik graflarda berilgan vaqt bo‘yicha kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun Koshi masalasining graf uchidagi to‘lqin dinamikasini o‘rganish imkonini beruvchi yechimini qurish;

chekli sondagi chekli va yarim chekli intervallardan tashkil topgan yulduzsimon metrik graflarda berilgan kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning yechimini topish;

Grin funksiyasi metodini qo‘llab, yulduzsimon grafda berilgan subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalani yechish;

chekli intervallardan tashkil topgan zinapoyasimon metrik grafda berilgan subdiffuziya tenglamasining yechimi mavjudligi va yagonaligini isbotlash.

Tadqiqotning ob’ekti. Ochiq va yopiq sodda yulduzsimon metrik graflar, chekli sondagi chekli va yarimchekli intervallardan tashkil topgan yulduzsimon metrik graf, chekli intervallardan tashkil topgan zinapoyasimon metrik graf.

Tadqiqotning predmeti. Subdiffuziya tenglamasi, vaqt bo‘yicha kasr hosilali Eyri tenglamasi, Koshi masalasi, boshlang‘ich-chegaraviy masalalar, Grin funksiyasi metodi, kasr hosilalar.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida potensiallar metodi, Grin funksiyasi metodi, energiya integrallari usuli, shuningdek boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechishning boshqa usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:**

sodda ochiq yulduzsimon metrik graflarda berilgan vaqt bo‘yicha kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun Koshi masalasining yechimi qurilgan;

chekli sondagi chekli qirralardan tashkil topgan yulduzsimon metrik graflarda berilgan kasr hosilali Eyri va subdiffuziya tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimining integral ifodasi topilgan;

Grin funksiyasi metodi graflarda berilgan subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni yechish uchun matritsaviy Grin funksiyasi sifatida umumlashtirilgan;

chekli intervallardan tashkil topgan zinapoyasimon metrik grafda berilgan subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar yechimining mavjud va yagonaligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Olingan natijalar va dissertatsiyada qo‘llanilgan usullar oliy o‘quv yurtlarida magistratura talabalari va doktorantlar uchun o‘quv kurs sifatida o‘qitilishi mumkin. Bundan tashqari, metrik graflarda berilgan kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning bir qiymatli yechilishiga oid dissertatsiya natijalaridan tarmoqlangan sistemalarda to‘lqin tarqalishi bilan bog‘liq jarayonlarda o‘tish va aks etish koeffitsientlarini hisoblash va jarayonlarning matematik modellarini ishlab chiqish uchun foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Grin funksiyasi metodi, kasr hosilali potensiallarning xossalarini isbotlovchi bir qator lemmalar va chiziqli integral tenglamalar nazariyasi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar metrik graflarda issiqlik tarqalishining va Eyri tenglamasi uchun tarmoqlangan strukturalarda to‘lqin tarqalishining xossalarini o‘rganish uchun qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar to‘lqin tarqalishining tarmoqlanish nuqtasidan o‘tish va qaytish koeffitsientini aniqlashda, tarmoqlangan mezoskopik va makroskopik maydonlarda to‘lqin jarayonlarini tahlil qilishda, asab tizimlarida impuls tarqalishi jarayonini modelleshtirishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Metrik graflarda berilgan Eyri va subdiffuziya tenglamasi uchun potensiallar va Grin funksiyasi metodi orqali olingan natijalar asosida:

grafda qaralgan subdiffuziya tenglamasi uchun topilgan boshlang‘ich-chegaraviy masalalarning Grin funksiyalaridan OT-Ф4-(37+29) raqamli “A-analitik funksiyalarning funksional xossalari va ularning qo‘llanilishi. Matritsaviy sohalarda kompleks analizning ba’zi masalalari” mavzusidagi fundamental loyihada berilgan chegaraviy masalalarning chegaraviy qiymatlarini topishda, hamda matritsa argumentli golomorf funksiyalar uchun ortonormal sistema bazisi qurishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 22 oktabrdagi 04/11-6626-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi Koshi formulasining analogini isbotlash imkonini bergan;

Eyri tenglamasi uchun sodda metrik grafda Koshi masalasining fundamental yechimidan OT-Ф-4-(36+32) raqamli “Matematik fizika va optimal boshqaruv masalalarini yechishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish. Toq tartibli xususiy hosilali tenglamalar uchun noklassik boshlang‘ich va spektral masalalar va ularning tatbiqlari” mavzusidagi fundamental loyihada uchinchi tartibli tenglama uchun nolokal masala yechimining mavjudligini ko‘rsatishda hamda masala yechimining integral ifodasini topishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2022 yil 22 oktabrdagi 04/11-6625-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi uchinchi tartibli tenglama uchun nolokal masala yechimining mavjud va yagonaligini isbotlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, shundan 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan, 2 tasi SCOPUS ma’lumotlar bazalarida indekslangan jurnallarda chop etilgan, 3 tasi respublika jurnallarida chop etilgan maqolalar va 10 tasi tezisdir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Dastlabki ma’lumotlar**” deb nomlangan birinchi bobida kasr hosilalar, Eyri va subdiffuziya tenglamalari nazariyasiga bag‘ishlangan muhim tushunchalar va yordamchi ma’lumotlar keltirilgan. Bu bobda biz kasr tartibli hosila tushunchasini keltirib o‘tamiz va Rayt tipidagi funksiyalar xossalariga to‘xtalamiz. Bundan tashqari, vaqt bo‘yicha kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun Koshi masalasini qaraymiz. Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafi subdiffuziya tenglamasi uchun Grin funksiyasi metodiga bag‘ishlanadi. Birinchi bobning birinchi, ikkinchi va uchinchi paragraflarida keltirilgan tushuncha va tasdiqlar umumiy tushunchalar bo‘lib, biz uni A.V.Psxu muallifligidagi maqoladan, I.Podlyubni va L.Kattabriga monografiyalaridan, to‘rtinchi paragrafidagi natijalarni esa A.Psxu monografiyasidan keltirdik.

1-ta’rif. Quyidagi

$$\partial_{\eta t}^{\alpha} g(t) = \frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \int_{\eta}^{t} \frac{g^{(n)}(\xi)}{(t-\xi)^{\alpha-n+1}} d\xi, \quad n-1 < \alpha < n,$$

va

$$D_{\eta t}^{\alpha} g(t)=\frac{1}{\Gamma(1-\alpha)} \frac{d^{n}}{d t^{n}}\left(\int_{\eta}^{t} \frac{g(\xi)}{(t-\xi)^{\alpha-n+1}} d \xi\right), \quad n-1<\alpha<n,$$

munosabat bilan aniqlangan operatorlar mos ravishda Kaputo va Riman-Liuvill kasr tartibli hosilalari deyiladi. Quyidagi

$$D_{\eta t}^{-\alpha} g(t)=\frac{1}{\Gamma(\alpha)} \int_{\eta}^{t} \frac{g(\xi)}{|t-\xi|^{1-\alpha}} d \xi, \quad 0<\alpha<1, \eta \leq t$$

tenglik bilan aniqlangan operator esa kasr tartibli integrallash operatori deyiladi. Ba’zan $D_{\eta t}^{-\alpha} g(t)$ belgilash o‘rniga $J_{\eta t}^{\alpha} g(t)$ belgilash ishlatiladi. Kaputo va Riman-Liuvill kasr hosilalari quyidagi tenglik orqali bog‘langan:

$$\partial_{0 t}^{\alpha} g(t)=D_{0 t}^{\alpha} g(t)-\frac{t^{-\alpha}}{\Gamma(1-\alpha)} g(0), \; 0<\alpha<1.$$

1-lemma. Aytaylik, $v(t)$ funksiya $[0, T]$ kesmada absolyut uzluksiz bo‘lsin. U holda quyidagi tengsizlik o‘rinli:

$$v(t) \partial_{0 t}^{\alpha} v(t) \geq \frac{1}{2} \partial_{0 t}^{\alpha} v^{2}(t).$$

2-lemma. Aytaylik, nomanfiy $y(t)$ funksiya deyarli barcha $t \in[0, T]$ lar uchun absolyut uzluksiz funksiya bo‘lib, quyidagi

$$\partial_{0 t}^{\alpha} y(t) \leq c_{1} y(t)+c_{2}(t), \; 0<\alpha \leq 1,$$

tengsizlikni qanoatlantirsin, bu yerda $c_{1}>0$ va $c_{2}(t)$ funksiya $[0, T]$ kesmada nomanfiy va integrallanuvchi funksiya bo‘lsin. U holda quyidagi

$$y(t) \leq y(0) E_{\alpha}\left(c_{1} t^{a}\right)+\Gamma(\alpha) E_{\alpha, \alpha}\left(c_{1} t^{\alpha}\right) D_{0, t}^{-\alpha} c_{2}(t),$$

tengsizlik o‘rinli bo‘ladi, bu yerda $E_{\alpha}(z)$ va $E_{\alpha, \mu}(z)$ funksiyalar Mittag–Leffler funksiyalari.

Kasr tartibli hisob nazariyasida quyidagi

$$\phi(\lambda, \mu ; z):=\sum_{n=0}^{\infty} \frac{z^{n}}{n! \Gamma(\lambda n+\mu)}, \quad \lambda>-1, \mu \in \mathbb{C}.$$

qator bilan aniqlanuvchi Rayt funksiyasi muhim rol o‘ynaydi.

2-ta’rif. Quyidagi

$$e_{\alpha, \beta}^{\mu, \delta}(z)=\sum_{n=0}^{\infty} \frac{z^{n}}{\Gamma(\alpha n+\mu) \Gamma(\delta-\beta n)}$$

funksiya Rayt tipidagi funksiya deb ataladi. Agar $\alpha=\mu=1$ bo‘lsa, bu funksiya Rayt funksiyasi bilan ustma-ust tushadi: $e_{1, \beta}^{1, \delta}(z)=\phi(-\beta, \delta, z)$.

A.V. Psxu maqolasida vaqt bo‘yicha Kaputo kasr hosilali Eyri tenglamasi

$$\partial_{0 t}^{\alpha} u(x, t)-\frac{\partial^{3}}{\partial x^{3}} u(x, t)=f(x, t), \quad-\infty<x<+\infty, 0<t \leq T,$$

ushbu

$$\lim _{t \rightarrow 0} D_{0 t}^{\alpha-1} u(x, t)=\tau(x), \quad x \in \mathbb{R},$$

boshlang‘ich shart bilan tadqiq etilgan, bu yerda $\tau(x)$ – berilgan uzluksiz funksiya va $0<\alpha\le 1.$

A.V. Psxu tomonidan yuqoridagi masalaning fundamental yechimi quyidagi

$$G_{\alpha}^{2\alpha/3}(x-\xi,t-\eta)=\frac{1}{3(t-\eta)^{1-2\alpha/3}}\begin{cases}\phi(-\frac{\alpha}{3},\frac{2\alpha}{3};\frac{x-\xi}{(t-\eta)^{\alpha/3}}), & x\le\xi,\\ -2\mathrm{Re}[e^{2\pi i/3}\phi(-\frac{\alpha}{3},\frac{2\alpha}{3};e^{2\pi i/3}\frac{x-\xi}{(t-\eta)^{\alpha/3}})], & x>\xi,\end{cases}$$

ko‘rinishda aniqlangan, bu yerda $t>\eta.$ Bu funksiyaning ba’zi xossalarini keltirib o‘tamiz.

1-teorema. *Aytaylik,* $\tau(x)\in C(\mathbb{R})$ *va biror* ν_+ *va* ν_- *lar uchun*

$$\lim_{x\to\pm\infty}\tau(x)\exp\left(-\nu_{\pm}x^{\frac{3}{3-\alpha}}T^{-\frac{3}{3-\alpha}}\right)=0,$$

bo‘lsin. Shuningdek, $f(x,t)$ *funksiya* $f(x,t)=D_{0t}^{-\gamma}g(x,t)$ *ko‘rinishida ifodalansin, bu yerda* $t^{1-\delta}g(x,t)\in C(\overline{D}),\ \gamma>0,\ \delta>0,\ \gamma+\delta>1-\alpha,$ *va ushbu*

$$\lim_{x\to\pm\infty}t^{1-\delta-\gamma}g(x,t)\exp\left(-\nu_{\pm}x^{\frac{3}{3-\alpha}}T^{-\frac{3}{3-\alpha}}\right)=0$$

munosabat bajarilsin. U holda

$$u(x,t)=\int_{-\infty}^{+\infty}\tau(\xi)D_{0t}^{\beta-1}G_{\alpha}^{\frac{2\alpha}{3}}(x-\xi,t-0)d\xi+\int_{0}^{t}\int_{-\infty}^{+\infty}f(\xi,\eta)G_{\alpha}^{\frac{2\alpha}{3}}(x-\xi,t-\eta)d\xi d\eta$$

funksiya vaqt bo‘yicha kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun Koshi masalasining yechimi hisoblanadi.

Endi, to‘g‘ri to‘rtburchakli D sohada berilgan quyidagi

$$\frac{\partial^2}{\partial x^2}u(x,t)-D_{0,t}^{\alpha}u(x,t)=f(x,t),$$

subdiffuziya tenglamasi uchun chegaraviy masalaning yechimini topish uchun Grin funksiyasi metodini keltiramiz. Bu tenglama $0<\alpha\le 1$ bo‘lganida subdiffuziya tenglamasi, $1<\alpha<2$ bo‘lganida esa kasr hosilali to‘lqin tenglamasi deyiladi.

1-masala. Subdiffuziya tenglamasining, $0<\alpha<2,$ $n-1<\alpha\le n,$ $n\in\{1,2\},$ D sohada aniqlangan va quyidagi

$$u(a_1,t)=\varphi_0(t),\ u(a_2,t)=\varphi_1(t),\ 0<t<b,$$
$$\lim_{t\to 0}D_{0t}^{\alpha-k}u(x,t)=\tau_k(x),\ a_1<x<a_2,$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $u(x,t)$ yechimini toping.

3-ta’rif. Ushbu

$$G(x,t,\xi,\eta)-D_{t\eta}^{\alpha}G(x,t,\xi,\eta)=0$$

tenglamaning quyidagi

$$\lim_{\xi\to a_1} G(x,t,\xi,\eta)=0,\ \lim_{\xi\to a_2} G(x,t,\xi,\eta)=0,\ t\neq\eta,$$

shartlarni qanoatlantiruvchi $G(x,t,\xi,\eta)$ yechimi subdiffuziya tenglamasi uchun birinchi chegaraviy masalaning Grin funksiyasi deyiladi.

Birinchi chegaraviy masalaning Grin funksiyasi quyidagi

$$G(x,t,\xi,\eta)=\sum_{n=-\infty}^{+\infty}\left[\Gamma_n(x-\xi,t-\eta)-\Gamma_n(x+\xi-2a_1,t-\eta)\right]$$

ko‘rinishga ega, bu yerda

$$\Gamma_n(s,\tau)=\frac{1}{2}\tau^{\beta-1}e_{1,\beta}^{1,\beta}\left(-\frac{\left|s+2n(a_2-a_1)\right|}{\tau^{\beta}}\right).$$

Ikkinchi chegaraviy masalaning Grin funksiyasi quyidagi

$$G_1(x,t,\xi,\eta)=\sum_{n=-\infty}^{+\infty}\left[\Gamma_n(x-\xi,t-\eta)+\Gamma_n(x+\xi-2a_1,t-\eta)\right]$$

ko‘rinishga ega.

Yuqorida qaralgan chegaraviy masalaning yechimi

$$u(x,t)=\int_0^t \nu_1(\eta)G_\xi(x,t,a_2,\eta)d\eta-\int_0^t \nu_0(\eta)G_\xi(x,t,a_1,\eta)d\eta+$$
$$+\int_{a_1}^{a_2}\sum_{k=1}^{n}(-1)^{k-1}\tau_k(\xi)\frac{\partial^{k-1}}{\partial\eta^{k-1}}G_1(x,t,\xi,0)d\xi-\int_0^t\int_{a_1}^{a_2} f(\xi,\eta)G_1(x,t,\xi,\eta)d\xi d\eta$$

ko‘rinishida bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Yulduzsimon grafda berilgan vaqt bo‘yicha kasr hosilali Eyri tenglamasi**” deb nomlanuvchi ikkinchi bobi to‘rtta paragrafdan iborat. Dissertatsiyaning bu bobida kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar o‘rganilgan.

A.V.Psxu tomonidan topilgan fundamental yechimdan tashqari bizga quyidagi elementar yechim

$$V_\alpha^{2\alpha/3}(x,t)=\frac{1}{3t^{1-2\alpha/3}}\,\mathrm{Im}[e^{2\pi i/3}\phi(-\frac{\alpha}{3},\frac{2\alpha}{3};e^{2\pi i/3}\frac{x}{t^{\alpha/3}})],\ x\geq 0$$

ham kerak bo‘ladi.

$V_\sigma^\mu(x,t)$ funksiya uchun quyidagi munosabatlar isbotlangan:

$$D_{0t}^{\nu}V_\sigma^\mu(x,t)=V_\sigma^{\mu-\nu}(x,t),\ \frac{\partial^3}{\partial x^3}V_\sigma^\mu(x,t)=V_\sigma^{\mu-\sigma}(x,t),\ V_\sigma^\mu(0,t)=\frac{\sqrt{3}}{6\Gamma(\mu)t^{1-\mu}}.$$

Fundamental va elementar yechimlar yordamida quyidagi funksiyalarni tuzamiz:

$$w_1(x,t)=\int_0^t G_\alpha^{2\alpha/3}(x-a,t-\eta)\tau_1(\eta)d\eta,$$
$$w_2(x,t)=\int_0^t V_\alpha^{2\alpha/3}(x-a,t-\eta)\tau_2(\eta)d\eta,$$
$$w_3(x,t)=\int_0^t \frac{\partial^2}{\partial x^2}G_\alpha^{2\alpha/3}(x-a,t-\eta)\tau_3(\eta)d\eta,$$

$$w_4(x,t)=\int_0^t \frac{\partial^2}{\partial x^2} V_\alpha^{2\alpha/3}(x-a,t-\eta)\tau_4(\eta)d\eta,$$

$$w_5(x,t)=\int_a^b G_\alpha^{2\alpha/3}(x-\xi,t)\tau_5(\xi)d\xi,$$

va

$$w_6(x,t)=\int_0^t\int_a^b G_\alpha^{2\alpha/3}(x-\xi,t-\eta)f(\xi,\eta)d\xi d\eta.$$

Ushbu potensiallarning quyidagi xossalari isbotlangan.

3-lemma. *Aytaylik,* $t^{1-\alpha}\tau_k(t),\, k=1,2$ *funksiyalar uzluksiz va chegaralangan bo'lsin. U holda:*

1. $w_1(x,t)$ *va* $w_2(x,t)$ *funksiyalar ushbu*

$$D_{0t}^{\alpha}u(x,t)-\frac{\partial^3 u(x,t)}{\partial x^3}=0$$

tenglamaning yechimi bo'ladi;

2. $w_1(x,t)$ *va* $w_2(x,y)$ *funksiyalar uchun quyidagi munosabatlar o'rinli:*

$$\lim_{t\to 0} w_k(x,t)=0, \qquad k=1,2.$$

4-lemma. *Aytaylik,* $t^{1-\alpha}\tau_k(t),\ k=3,4$ *funksiyalar biror intervalda variatsiyasi chegaralangan, uzluksiz funksiyalar bo'lsin. U holda quyidagi munosabatlar o'rinli:*

$$\lim_{x\to a-0} w_3(x,t)=\frac{1}{3}\tau_3(t),$$

$$\lim_{x\to a+0} w_3(x,t)=-\frac{2}{3}\tau_3(t)$$

va

$$\lim_{x\to a+0} w_4(x,t)=0.$$

5-lemma. *Aytaylik,* $\tau_5(x)\in C[a,b]$ *bo'lsin. U holda* $w_5(x,t)$ *funksiya ushbu*

$$D_{0t}^{\alpha}u(x,t)-\frac{\partial^3}{\partial x^3}u(x,t)=0$$

tenglamaning yechimi bo'ladi va quyidagi boshlang'ich shartni qanoatlantiradi:

$$\lim_{t\to 0} D_{0t}^{\alpha-1}w_5(x,t)=\tau_5(x).$$

6-lemma. *Aytaylik,* $t^{1-\alpha}f(x,t)\in C^{0,1}([a,b]\times(0,T])$ *bo'lsin. U holda ushbu*

$$D_{0t}^{\alpha}u(x,t)-\frac{\partial^3}{\partial x^3}u(x,t)=f(x,t)$$

tenglamaning quyidagi

$$D_{0t}^{\alpha-1}u(x,t)\,|_{t=0}=0$$

boshlang'ich shartni qanoatlantiruvchi yechimi quyida potensial ko'rinishida aniqlanadi:

$$w_6(x,t)=\int_0^t d\eta\int_a^b G_\alpha^{2\alpha/3}(x-\xi,t-\eta)\,f(\xi,\eta)d\xi.$$

Aytaylik, $E_1=\{(x,t):0<x<1,0<t\le T\}$, $E_2=\{(x,t):0<x<\infty,0<t\le T\}$, $E_3=\{(x,t):-\infty<x<0,0<t\le T\}$ bo‘lsin.

Kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun quyidagi masalalarni qaraymiz:

2-masala. Ushbu

$$D_{0t}^{\alpha}u(x,t)-\frac{\partial^3}{\partial x^3}u(x,t)=f(x,t) \qquad (1)$$

tenglamaning quyidagi

$$D_{0t}^{\alpha-1}u\left(x,0\right)=0,\quad 0\le x\le 1,$$

boshlang‘ich shartni, ushbu

$$u\left(0,t\right)=\varphi_1\left(t\right),\ \frac{\partial u}{\partial x}(0,t)=\varphi_2\left(t\right)\ \text{va}\ \ u\left(1,t\right)=\varphi_3\left(t\right)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi E_1 to‘plamdagi regulyar yechimini toping.

Bu yerda regulyar yechim deganda ushbu sinfdan bo‘lgan yechim tushuniladi:

$$V_1=\{u(x,t):u\in C^{3,0}(E_1),\ D_{0,t}^{\alpha}u\in C(E_1),\ t^{1-\alpha}u\in C(\bar{E}_1),t^{1-a}u_x\in C([0,1)\times[0,T])\}.$$

3-masala. (1) tenglamaning

$$D_{0t}^{\alpha-1}u\left(x,0\right)=0,\quad 0\le x<\infty,$$

ushbu boshlang‘ich shartni

$$u(0,t)=\psi_1(t);\ \lim_{x\to 0}\frac{\partial u}{\partial x}(x,t)=\psi_2(t),$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi E_2 to‘plamdagi regulyar yechimini toping.

Bu yerda regulyar yechim deganda ushbu sinfdan bo‘lgan yechim tushuniladi:

$$V_2=\{u(x,t):u\in C^{3,0}(E_2),\ D_{0,t}^{\alpha}u\in C(E_2),\ t^{1-\alpha}u\in C(\bar{E}_2),t^{1-a}u_x\in C([0,+\infty)\times[0,T])\}.$$

4-masala. (1) tenglamaning

$$D_{0t}^{\alpha-1}u\left(x,0\right)=0,\quad -\infty<x\le 0,$$

boshlang‘ich shartni va ushbu

$$\lim_{x\to 0}\frac{\partial^2 u}{\partial x^2}(x,t)=\psi(t)$$

chegaraviy shartni qanoatlantiruvchi E_3 to‘plamdagi regulyar yechimini toping. Bu yerda regulyar yechim deganda ushbu sinfdan bo‘lgan yechim tushuniladi:

$$V_3=\{u(x,t):u\in C^{3,0}(E_3),\ D_{0,t}^{\alpha}u\in C(E_3),\ t^{1-\alpha}u\in C(\bar{E}_3),t^{1-a}u_x\in C((-\infty,0]\times[0,T])\}.$$

Yuqoridagi masalalarning yechimlari mavjudligi va yagonaligi isbotlangan.

2-teorema. *Agar* $t^{1-\alpha}\varphi_j(t)\in C[0,T],\ (j=1,2,3)$ *va* $t^{1-\alpha}f(x,t)\in C^{0,1}(\overline{E_1}),$ *bo‘lsa, 2-masala quyidagi ko‘rinishdagi yagona yechimga ega:*

$$u(x,t)=\int_0^t G_\alpha^{2\alpha/3}(x,t-\tau)\lambda(\tau)d\tau+\int_0^t V_\alpha^{2\alpha/3}(x,t-\tau)\mu(\tau)d\tau+$$

$$+\int_0^t G_\alpha^{2\alpha/3}(x-1,t-\tau)\nu(\tau)d\tau+\int_0^t\int_0^1 G_\alpha^{2\alpha/3}(x-\xi,t-\tau)f(\xi,\tau)d\xi d\tau,$$

bu yerda $\lambda(t)$, $\mu(t)$ *va* $\nu(t)$ *funksiyalar*

$$\Phi(t)=\int_0^t K(t-\tau)\Phi(\tau)d\tau+\tilde{F}(t),$$

sistema orqali aniqlanadi.

3-teorema. *Agar* $t^{1-\alpha}\psi_j(t)\in C[0,T],\ (j=1,2,3)$ *va* $t^{1-\alpha}f(x,t)\in C^{0,1}(\overline{E_2}),$ *bo‘lsa, 3-masala quyidagi ko‘rinishdagi yagona yechimga ega:*

$$u(x,t)=\int_0^t G_\alpha^{2\alpha/3}(x,t-\tau)\lambda(\tau)d\tau+\int_0^t V_\alpha^{2\alpha/3}(x,t-\tau)\mu(\tau)d\tau+Q(x,t),$$

bu yerda,

$$Q(x,t)=\int_0^t\int_0^{+\infty} G_\alpha^{2\alpha/3}(x-\xi,t-\tau)f(\xi,\tau)d\xi d\tau,$$

$$\lambda(t)=\frac{3}{2}D_{0t}^{2\alpha/3}\left(\psi_1(t)-Q(0,t)\right)+\frac{3}{2}\partial_{0t}^{\alpha/3}\left(\psi_2(t)-\frac{\partial}{\partial x}Q(0,t)\right)$$

va

$$\mu(t)=\sqrt{3}D_{0t}^{2\alpha/3}\left(\psi_1(t)-Q(0,t)\right)-\sqrt{3}D_{0t}^{\alpha/3}\left(\psi_2(t)-\frac{\partial}{\partial x}Q(0,t)\right).$$

4-teorema. *Agar* $t^{1-\alpha}\psi\in C[0,T]$ *va* $t^{1-\alpha}f(x,t)\in C^{0,1}(\overline{E_3}),$ *bo‘lsa, 4-masala quyidagi ko‘rinishdagi yagona yechimga ega:*

$$u(x,t)=\frac{3}{2}\int_0^t G_\alpha^{2\alpha/3}(x,t-\tau)\left(\frac{\partial^2}{\partial x^2}R(x,\tau)-\psi(\tau)\right)d\tau+R(x,t),$$

bu yerda

$$R(x,t)=\int_0^t\int_{-\infty}^0 G_\alpha^{2\alpha/3}(x-\xi,t-\tau)f(\xi,\tau)d\xi d\tau.$$

Dissertatsiya ikkinchi bobining uchinchi paragrafida yarimcheksiz qirrali yulduzsimon grafda berilgan vaqt bo‘yicha kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun Koshi masalasi tadqiq qilingan.

Aytaylik, Γ graf k ta kiruvchi va m ta chiquvchi qirradan tashkil topgan bo‘lsin. Kiruvchi qirralar koordinatalari $-\infty$ dan 0 gacha, chiquvchi qirralarda esa, 0 dan $+\infty$ gacha aniqlangan bo‘lsin. Graf qirralarini $B_j,\ j=\overline{1,k+m}$ orqali belgilaymiz.

Masalaning qo‘yilishi. Γ grafning har bir qirrasida ushbu

$$D_{0t}^{\alpha}u_j(x,t)-\frac{\partial^3}{\partial x^3}u_j(x,t)=f_j(x,t),\ \ 0<t\le T, x\in B_j,$$

vaqt bo‘yicha kasr hosilali Eyri tenglamasi va quyidagi

$$u_j(x,0)=\phi_j(x),\ \ x\in\overline{B_j},\ \ j=\overline{1,k+m}$$

boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi yechimini qidiraylik.

Shuningdek, yechim grafning uchi – 0 nuqtada quyidagi ulanish shartlarini qanoatlantirsin:

$$a_ju_j(0,t)=u_1(0,t),\ 0<t\le T,\ \ j=\overline{2,k+m},$$

$$u_x^+(0,t)=Bu_x^-(0,t),\ 0<t\le T,$$

$$\sum_{j=1}^{k}\frac{1}{a_j}\frac{\partial^2}{\partial x^2}u_j(x,t)\Big|_{x=0}=\sum_{i=k+1}^{k+m}\frac{1}{a_i}\frac{\partial^2}{\partial x^2}u_i(x,t)\Big|_{x=0},\ 0<t\le T,$$

bu yerda $a_1\equiv 1,\ a_j\ne 0,\ j=\overline{1,k+m},\ u^-=(u_1,u_2,...,u_k)^T,\ u^+=(u_{k+1},u_{k+2},...,u_{k+m})^T$ va B – $m\times k$ o‘lchamli o‘zgarmas matritsa. Shuningdek $u=\left(u_1,u_2,...,u_{k+m}\right)^T$ belgilashni kiritamiz.

Masalaning yagona yechimining aniq ko‘rinishi topilgan.

5-teorema. *Aytaylik, B^TB-E manfiy aniqlangan matritsa bo‘lsin, $\phi_j(x)\in C\left(\overline{B_j}\right),\ t^{1-\alpha}f(x,t)\in C^{0,1}\left(B_j\times[0,T]\right),\ j=\overline{1,k+m},$ va bu funksiyalar $x\to\pm\infty$ bo‘lganda nolga aylansin. U holda qaralayotgan masalaning yagona yechimi quyidagi ko‘rinishga ega:*

$$u(x,t)=F(x,t)+\int_0^t U(x-0,t-\tau)M^{-1}\Phi(\tau)d\tau,$$

bu yerda

$$U(x,t)=\begin{pmatrix} G_{\alpha}^{2\alpha/3}(x,t)I_k & | & 0_{k\times m} & | & 0_{k\times m}\\ 0_{m\times k} & | & G_{\alpha}^{2\alpha/3}(x,t)I_m & | & V_{\alpha}^{2\alpha/3}(x,t)I_m\end{pmatrix}.$$

To‘rtinchi paragrafda chekli qirrali yulduzsimon metrik grafda berilgan Eyri tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala o‘rganilgan.

Aytaylik, Γ_1 graf k ta kiruvchi va m ta chiquvchi qirradan tashkil topgan bo‘lsin. Kiruvchi qirralar koordinatalari $L_j\left(L_j<0,\ j=\overline{1,k}\right)$ dan 0 gacha, chiquvchi qirralarda esa 0 dan $L_i\left(L_i>0,\ i=\overline{k+1,k+m}\right)$ gacha aniqlangan bo‘lsin. Graf qirralarini $b_j,\ j=\overline{1,k+m}$ orqali belgilaymiz (2.4.1. rasm).

Masalaning qo‘yilishi. Aytaylik, $f=(f_1,f_2,...,f_{k+m})^T,\ u^-=(u_1,u_2,...,u_k)^T,$ $u^+=(u_{k+1},u_{k+2},...,u_{k+m})^T$ va $u=\begin{pmatrix}u^+\\ u^-\end{pmatrix}$ bo‘lsin. Γ_1 grafning har bir qirrasida ushbu

$$D_{0t}^{\alpha}u(x,t)-\frac{\partial^3}{\partial x^3}u(x,t)=f(x,t),\ \ 0<t\le T, x\in B_j,$$

vaqt bo‘yicha kasr hosilali Eyri tenglamasini va ushbu

$$u(x,0)=u_0(x),\quad x\in\overline{B_j},\quad j=\overline{1,k+m},$$

boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi yechimini qidiraylik, bu yerda $u_0=\left(u_1^0,u_2^0,...,u_{k+m}^0\right)^T$.

Shuningdek, qidirilayotgan yechim grafning uchida ushbu

$$Au\left(0,t\right)=0,\ 0<t\le T$$

va

$$u_x^+(0,t)=Bu_x^-(0,t),\ 0<t\le T,$$

moslik shartlarini qanoatlantirilsin, bu yerda A – o‘zgarmas matritsa

$$A=\begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 & ... & 0 \\ 1 & -a_2 & 0 & ... & 0 \\ 1 & 0 & -a_3 & ... & 0 \\ ... & ... & ... & ... & ... \\ 1 & 0 & 0 & ... & 0 \\ 1 & 0 & 0 & ... & -a_{k+m} \end{pmatrix}$$

ko‘rinishga ega va B – $m\times k$ o‘lchamli o‘zgarmas matritsa.

Qirralarning birlashish nuqtasida barcha $t\in(0,T]$ uchun quyidagi Kirxgoff shartlari bajarilsin:

$$C^-\frac{\partial^2}{\partial x^2}u^-(x,t)\,|_{x=0}=C^+\frac{\partial^2}{\partial x^2}u^+(x,t)\,|_{x=0},\quad 0<t\le T.$$

Grafning chekka nuqtalarida quyidagi chegaraviy shartlar bajarilsin

$$u(x,t)\,|_{x=\partial\Gamma}=\varphi(t),\ \frac{\partial}{\partial x}u^-(x,t)\,|_{x=\partial\Gamma_1}=\phi(t),\ 0<t\le T,$$

bu yerda barcha $j=\overline{2,k+m}$ uchun

$$C^-=(\frac{1}{a_1},\frac{1}{a_2},...,\frac{1}{a_k}),\ C^+=(\frac{1}{a_{k+1}},...,\frac{1}{a_{k+m}}),\ a_1=1,\ a_j\ne 0$$

va $\varphi=(\varphi_1,\varphi_2,...,\varphi_{k+m})^T$, $\phi=(\phi_1,\phi_2,...,\phi_k)^T$.

Qo‘yilgan masalaning yechimi mavjud va yagonaligi isbotlangan.

6-teorema. *Aytaylik, B^TB-E manfiy aniqlangan matritsa bo‘lib, $u_j^0\left(x\right)\in C\left(\overline{b_j}\right)$, $D_{0t}^{1-\alpha}f_j(x,t)\in C^{0,1}(\overline{b_j}\times[0,T])$, $j=\overline{1,k+m}$, $\varphi(t)$ va $\phi(t)$ funksiyalar $[0,T]$ kesmada differensiallanuvchi bo‘lsin. U holda qaralayotgan masala yagona yechimga ega.*

Dissertatsiyaning “**Metrik graflarda berilgan subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalar**” deb nomlangan uchinchi bobida subdiffuziya tenglamasi uchun ikki xil metrik grafda boshlang‘ich-chegaraviy masalalar qaralgan.

Aytaylik, Ω graf O nuqtada birlashuvchi $m = k + l$ ta teng qirralardan tashkil topgan bo‘lsin. Grafning koordinatalarini 0 dan L gacha, har bir qirrasini esa $B_j,\ j = \overline{1,m}$ orqali belgilaylik.

Ushbu grafning har bir qirrasida ushbu

$$D_{0t}^{\alpha} u_j(x,t) - \frac{\partial^2}{\partial x^2} u_j(x,t) = f_j(x,t), \quad 0 < x < L, 0 < t < T, \ j = \overline{1,m} \tag{2}$$

bu yerda $0 < \alpha < 1$, subdiffuziya tenglamalarini va ushbu

$$\lim_{t \to 0} D_{0t}^{\alpha-1} u_j(x,t) = \varphi_j(x), \quad 0 \le x \le L, \ j = \overline{1,m} \tag{3}$$

boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini qidiraylik.

Qirralarning tutashish nuqtasida esa barcha $t \in [0,T]$ lar uchun Kirxgoff shartlari bajarilsin:

$$u_1(0,t) = u_2(0,t) = ... = u_m(0,t), \ 0 < t \le T, \tag{4}$$

$$\lim_{x \to 0} \left(\sum_{i=1}^{m} \frac{\partial}{\partial x} u_i(x,t) \right) = 0, \quad 0 < t \le T. \tag{5}$$

Grafning chekka nuqtalarida quyidagicha bir xil:

$$u_i(L,t) = \psi_i(t), \quad 0 < t \le T, \ i = \overline{1,m}, \tag{6}$$

yoki quyidagicha aralash:

$$u_i(L,t) = \gamma_i(t), \ 0 < t \le T, \ i = \overline{1,k}, \ \frac{\partial}{\partial x} u_j(L,t) = \gamma_j(t), \ 0 < t \le T, \ \ j = \overline{k+1,m}. \tag{7}$$

chegaraviy shartlarni qaraymiz.

5-masala. (2) tenglamaning (3)-(6) shartlarni qanoatlantiruvchi regulyar yechimlari topilsin.

6-masala. (2) tenglamaning (3)-(5) va (7) shartlarni qanoatlantiruvchi regulyar yechimlari topilsin.

7-teorema. *Aytaylik,* $t^{1-\alpha}\phi_i(t),\ t^{1-\alpha}\varphi_i(t) \in C[0,T] \ (i = \overline{1,m}, T > 0),$ *va* $t^{1-\alpha} f(x,t) \in C^{0,1}\{(x,t) : 0 \le x \le L, 0 < t < T\}$. *bo‘lsin. U holda 5-masalaning yagona yechimi quyidagi ko‘rinishga ega:*

$$u(x,t) = -\int_0^t (G_\xi(x,t;L,\tau)u(L,\tau)+)d\tau - \int_0^L \varphi(t) G(x,t;\xi,\tau) d\xi -$$

$$-\int_0^t \int_0^L G(x,t;\xi,\tau) F(\xi,\tau) d\xi d\tau,$$

bu yerda $u = (u_1,...,u_m)^T$, $F = (f_1,..., f_m)^T$ *va*

$$G(x,t;\xi,\tau) = \sum_{n=-\infty}^{+\infty} (-1)^n M^n \left(\Gamma(x - \xi + 2nL, t - \tau) + M\Gamma(x + \xi + 2nL, t - \tau) \right).$$

8-teorema. *Aytaylik,* $\varphi_i(x) \in C[0,L],\ t^{1-\alpha}\gamma_i(t) \in C[0,T]$. *bo‘lsin. U holda 6-masalaning yagona yechimi quyidagi ko‘rinishga ega:*

$$u(x,t)=\int_0^t G_{1\xi}^{(N)}\left(x,t;L,\tau)\frac{\partial u_N(\xi,\tau)}{\partial}\Big|_{\xi=L} -G_{1\xi}^{(D)}(x,L;t,\tau)u_D(L,\tau)\right)d\tau -$$

$$-\int_0^L \gamma(t)G_1(x,t;\xi,\tau)d\xi-\int_0^t\int_0^L G_1(x,t;\xi,\tau)F(\xi,\tau)d\xi d\tau,$$

bu yerda

$$G_1^{(D)}=\begin{pmatrix} G_1^{11} & G_1^{12} & \dots & G_1^{1m} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ G_1^{k1} & G_1^{k2} & \dots & G_1^{km} \\ 0 & 0 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & 0 \end{pmatrix},\quad G_1^{(N)}=\begin{pmatrix} 0 & 0 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & 0 \\ G_1^{k+1,1} & G_1^{k+1,2} & \dots & G_1^{k+1,m} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ G_1^{m1} & G_1^{m2} & \dots & G_1^{mm} \end{pmatrix},$$

$u=(u_1,...,u_m)^T$, $u_D=(u_1,...,u_k,0,...,0)^T$, $u_N=(0,...,0,u_{k+1},...,u_m)^T$ *va* $F=(f_1,...,f_m)^T$.

Ikkinchi paragrafda $3m-1$ ta teng qirraga ega bo‘lgan zinapoyasimon graf qaralgan. Graf qirralarining koordinatalarini qirraning 0 dan L gacha bo‘lgan intervalga izometrik akslantirishi sifatida aniqlaymiz. Graf qirralarini $B_k,\ k=\overline{1,3m-1}$ orqali belgilaymiz. Biz shu grafda berilgan subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalani o‘rganamiz. Bunda, m ning juft va toq qiymatlarida grafning chekka qirralari farq qiladi. Shu sababli ikki xil holatni qaraymiz.

Aytaylik, m juft son bo‘lsin. (3) subdiffuziya tenglamasining (4) boshlang‘ich shartni qanoatlantiruvchi yechimini qidiramiz.

Grafning ichki nuqtalarida yechimlar barcha $t\in[0,T],\ j=\overline{0,[\frac{m-2}{2}]}$ lar uchun quyidagi Kirxgoff shartlarini qanoatlantirsin:

$$u_{6j+2}(0,t)=u_{6j+3}(0,t)=u_{6j+5}(0,t),$$

$$u_{6j+4}(0,t)=u_{6j+6}(0,t)=u_{6j+7}(0,t),$$

$$u_{6j+1}(L,t)=u_{6j+3}(L,t)=u_{6j+4}(L,t),$$

$$u_{6j+5}(L,t)=u_{6j+6}(L,t)=u_{6j+8}(L,t) \qquad (8)$$

va

$$\lim_{x\to 0}\frac{\partial}{\partial x}\left(u_{6j+2}(x,t)+u_{6j+3}(x,t)+u_{6j+5}(x,t)\right)=0,$$

$$\lim_{x\to 0}\frac{\partial}{\partial x}\left(u_{6j+4}(x,t)+u_{6j+6}(x,t)+u_{6j+7}(x,t)\right)=0,$$

$$\lim_{x\to L}\frac{\partial}{\partial x}\Big(u_{6j+1}(x,t)+u_{6j+3}(x,t)+u_{6j+4}(x,t)\Big)=0,$$

$$\lim_{x\to L}\frac{\partial}{\partial x}\Big(u_{6j+5}(x,t)+u_{6j+6}(x,t)+u_{6j+8}(x,t)\Big)=0 \qquad (9)$$

Bu shartlar tarmoqlanish nuqtalarida oqimning saqlanishini ifodalaydi.

Yechim grafning chekka nuqtalarida quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin:

$$u_1(0,t)=\psi_1(t),\;\; u_{3m-1}(0,t)=\psi_2(t),\;\; u_2(L,t)=\psi_3(t),\;\; u_{3m-2}(L,t)=\psi_4(t). \qquad (10)$$

7-masala. (2) tenglamaning (3) boshlang‘ich shart va (8) – (10) shartlarni qanoatlantiruvchi regulyar yechimi topilsin.

Ushbu qo‘yilgan masala yechilgan va yechimning integral ko‘rinishi topilgan.

9-teorema. *Aytaylik,* $t^{1-\alpha}\phi_i(t)\in C[0,T],\varphi_i(x)\in C[0;L],$ $(i=\overline{1,3m-1},T>0), m-$ *juft son va* $t^{1-\alpha}f(x,t)\in C^{0,1}\{(x,t):0\le x\le L, 0\le t\le T\}.$ *bo‘lsin. U holda 7-masalaning yagona yechimi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:*

$$u(x,t)=\int_0^t (G_\xi(x,t;0,\tau)U^{1,3m-1}(0,\tau))d\tau-\int_0^t (G_\xi(x,t;L,\tau)U^{2,3m-2}(L,\tau))d\tau-$$

$$-\int_0^L \varphi(t)G(x,t;\xi,\tau)d\xi-\int_0^t\int_0^L G(x,t;\xi,\tau)F(\xi,\tau)d\xi d\tau,$$

bu yerda $U^{i,j}=(0,0,...0,u_i,0,...,0,u_j,0,...,0)^T$, $F=(f_1,...,f_{3m-1})^T$ *va*

$$G(x,t;\xi,\tau)=\sum_{n=-\infty}^{+\infty}\Big(M^n\Gamma(x-\xi+2nL,t-\tau)+(DC^{-1})^n\Gamma(x+\xi+2nL,t-\tau)\Big).$$

XULOSA

Dissertatsiya ishi metrik graflarda berilgan kasr hosilali Eyri va subdiffuziya tenglamalari uchun boshlang‘ich-chegaraviy masalalarni Grin funksiyasi metodi va potensiallar metodi orqali tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Ochiq yulduzsimon metrik grafda kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun Koshi masalasi yechimining aniq integral ko‘rinishi topildi.

2. Ochiq va yopiq yulduzsimon metrik grafda vaqt bo‘yicha kasr hosilali Eyri tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimi topildi. Potensiallar metodi orqali yechimning aniq ko‘rinishi topildi.

3. Yopiq yulduzsimon metrik grafda subdiffuziya tenglamasi uchun boshlang‘ich-chegaraviy masala yechimi topildi. Umumlashgan Grin funksiyasi metodi orqali yechimning aniq ko‘rinishi topildi.

4. Umumlashgan Grin funksiyasi metodi orqali zinapoyasimon grafda berilgan subdiffuziya tenglamasining yechimi topildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

РАХИМОВ КАМОЛАДДИН УРИНБАЕВИЧ

МЕТОД ПОТЕНЦИАЛОВ ДЛЯ ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ С ДРОБНОЙ ПРОИЗВОДНОЙ, ЗАДАННЫХ НА МЕТРИЧЕСКИХ ГРАФАХ

01.01.02 – Дифференциальные уравнения

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2022.3.PhD/FM747.

Диссертация выполнена в национальном университете Узбекистана имени М. Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу http://kengash.mathinst.uz и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу http://www.ziyonet.uz.

Научный руководитель:	**Собиров Зарифбой Ахмедович** кандитат физико-математических наук, доцент
Официальные оппоненты:	**Дурдиев Дурдимурод Каландарович** доктор физико-математических наук, профессор
	Каримов Эркинжон Тулкинович доктор физико-математических наук, старший научний сотрудник
Ведущая организация:	**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 14 » марта 2023 года в 17:00 на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте Математики имени В. И. Романовского. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Математики имени В. И. Романовского (зарегистрирована за № 157). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан « 28 » февраля 2023 года.
(протокол рассылки № 2 от « 28 » февраля 2023 года).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

У.А. Розиков
Председатель Научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., профессор

Ж.К. Адашев
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., старший
научный сотрудник

А.А. Азамов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению ученых
степеней, д.ф.-м.н., академик

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Известно, что большинство научных исследований в физике, механике, химии, биофизике, биотехнологии и производстве в основном приводится к теории дифференциальных уравнений с частными производными. В том числе, многие процессы в разветвленных системах позволяет исследовать эти уравнения на графах. Например, при моделировании процессов в разветвленных областях используются начально-краевые задачи для дифференциальных уравнений с частными производными на метрических графах. При этом в точках разветвления графа применяется общее условие локального сохранения потока, то есть условие Кирхгоффа, что в самом элементарном случае обеспечит условие непрерывности решения на вершине графа и равенства нулю суммы исходящих односторонних производных решения на вершине.

Моделирование процессов распространение импульсов в нервных системах приводится к начально-краевым задачам для уравнения диффузии на метрических графах. Линеаризованное уравнения Кортевега-де Фриза, иногда называемый уравнением Эйри, обеспечивает асимптотическое описание линейных, ненаправленных, слабодиспергирующих длинных волн, например, волн на мелкой воде. Также дифференциальные уравнения, заданных на графах, широко используются при математическом моделировании процессов в области медицины. В частности, при моделировании процессов, связанных с РНК в генах, дифференциальные уравнения рассматриваются в лестничных графах.

В последние годы, в нашей стране большое внимание выделяется современным методам в фундаментальных науках, в том числе и уравнениям математической физики. Сюда можно включить все внимания, уделяемые изучению начально-краевых задач для неклассических уравнений в метрических графах. Значительные результаты были получены при анализе процессов квантовой физики с применением неклассического уравнения Эйри и субдиффузии, заданного на метрических графах. Главными вопросами и направлениями деятельности математической науки являются проведение изучений на уровне интернациональных стандартов по приоритетным направлениям «Дифференциальные уравнения и математическая физика».[1] Поэтому решение начально-краевые задачи для уравнений на метрических графах, обобщить метод потенциалов для решения начально-краевых задач и разработать методы решения субдиффузионных уравнений на метрических графах является важными задачами в науке.

[1] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 18 мая 2017 года №292 «Об организации вновь созданных научно-исследовательских институтов Академии наук Республики Узбекистан».

